

# MA'LUMOTNOMA

## QATNASHISHGA LOYIQ BO'LISH UCHUN NIMA QILISHIM KERAK?

Pittsburgh Promise stipendiyasini\* qo'lga kiritish uchun o'quvchilar quyidagi talablarga javob berishlari lozim: (1) Pittsburgh davlat maktabalarida yoki Pittsburgh davlat maktablari qoshidagi to'rtta charter maktabdan birida o'qishlari va (2) kamida 9-sinf boshidan beri Pittsburgh shahrida (yoki Uilkinsburgda) uzluksiz yashab kelayotgan bo'lishlari; (3) PDM yuqori sinflarini kamida jami o'rtacha 2.50 ball bilan bitirishlari hamda davomat darajasi kamida 90% tashkil etishi lozim.

Promise dasturining boshqa talablariga javob beruvchi o'quvchilar lekin umimiy o'rtacha ballari 2.0 bilan 2.49 orasida bolganlar Promise kengaytirilgan dasturiga topshirishlari mumkin boladi. Promise mablaglari dasturga pul to'lashda yordam beradi va bir yillik o'quv dasturini muvaffaqiyatli tugatganlar Promise dasturida qatnashishga toliq loyiq boladi. Batafsil ma'lumotni quyidagi saytdan oling: [pittsburghpromise.org/the-scholarship/eligibility](http://pittsburghpromise.org/the-scholarship/eligibility).

\* Pittsburgh Promise dasturi o'quvchilarga 2028 yilga qadar bitiruvchi sinflarni moliyalashtirish uchun talab etilgan resurslarni to'plash majburiyatini oladi.

## MEN KOLLEJ STIPENDIYASI SIFATIDA QANCHA MABLAG' OLAMAN?

9-sinfning dastlabki kunidan boshlab uzluksiz o'qigan muvofiq keluvchi o'quvchilar o'rta ta'lim olgandan keyin besh yil davomida ishlatalishi mumkin bo'lgan yiliga to 5,000 dollargacha (maksimum 20,000 dollar) bo'lgan stipendiya olish uchun harakat qilishlari mumkin. 1000 dollarga teng yillik *minimal stipendiya* barcha loyiq va qabul qilingan o'quvchilarga taqdim etiladi.

Promise "sónggi dollar" stipendiyasi hisoblanadi. Bu degani yiliga to 5,000 dollargacha (maksimum 20,000 dollar) mablag' davlat grantlari (Pell, PHEAA va FSEOG kabi), boshqa grantlar hamda stipendiyalar, jumladan, tolodan ozod qilish uchun mablaglar matabdan keyingi ta'limning besh yildan har biri uchun olib qolingandan so'nq o'quvchining Qoldiq balansiga o'tkaziladi.

Agar maksimal 5000 yutgan o'quvchiga barcha xarajatlarini qoplash uchun faqat 3000 dollar talab etilsa biz 3000 dollar taqdim etamiz. Agar barcha grantlar va stipendiyalarga arizga topshirgandan keyin o'quvchida xarajatlar qolmasa, ular Promise dasturidan baribir kamida 1000 dollar oladilar va bu pullarni o'z xohishiga qarab matab xarajatlariga sarflashlari mumkin.

## MEN PROMISE STIPENDIYASINI QAYERDA ISHLATISHIM MUMKIN?

O'quvchilar Pensilvaniyadagi rasmiy kollej, universitet, savdo yoki texnik matabiga qatnashlari mumkin. Dasturlar federal Pell granti talablariga javob berishi lozim. Nimaga ishlatalishi faqat matabdan keyingi ta'lim uchun foydalanimishi mumkin va universitet darajasidagi kurslar uchun ishlatilmaydi. Promise onlayn ta'lim uchun pul tolamaydi.

## MEN STIPENDIYANI QANCHA VAQT DAVOMIDA ISHLATISHIM MUMKIN?

Pittsburgh Promise dasturi stipendiyasi yuqori sinflarni tamomlagandan boshlab besh yil ichida ishlatalishi lozim.

PROMISE  
MABLAG'LARI  
NIMAGA  
ISHLATILISHI  
MUMKIN?

2018 yil va undan  
keyingi sinflar uchun:

Promise stipendiyasi  
o'qishga qatnash  
harajatlarini toliq qoplaydi.  
Bunga o'qish puli, tolovlar,  
xona, yashash hamda  
kitoblar kiradi.

## PROMISE DASTURIDA QATNASHUVCHI MAKTABLAR RO'YXATI

City High yuqori sinflar charter maktabi  
Environmental charter maktabi  
Passport Academy charter maktabi  
Pittsburgh Allderdice maktabi  
Pittsburgh Brashear maktabi  
Pittsburgh CAPA maktabi  
Pittsburgh Carrick maktabi  
Pittsburgh Millions (UPrep) maktabi  
Pittsburgh Obama maktabi  
Pittsburgh onlayn akademiyasi\*  
Pittsburgh Perry maktabi  
Pitsburg fan-teknika akademiyasi  
Pittsburgh Westinghouse maktabi  
Academy yuqori sinflar charter maktabi  
Urban Pathways yuqori sinflar charter maktabi

\* Pittsburgh onlayn akademiyasi o'quvchilarini Promise stipendiyasiga tayyorlaydigan yagona onlayn/kiber yuqori sinflar maktabi sanaladi.

## MEN AN'ANAVIY 4.0 SHKALA BO'YICHA BAHOLANMAGAN BO'LSAM NIMA BO'LADI?

Pitsburg davlat maktablari har bir o'quvchining akademik ma'lumotlari haqida xabar berish uchun mas'ul hisoblanadi. Maktab psixologingiz yoki o'tish davri maslahatchingiz sizning akademik ozlashtirishingizni aniqlash uchun maktabingiz bilan ishlaydi va uni Promise dasturiga moslaydi.

## MENING NAZORATIMDAN TASHQARIDA BO'LGAN O'QISHIM, BALLARIM, DARSLARGA QATNASHIMDAGI UZILISH BILAN BOGLIQ YOKI BOSHQA MUAMMO MENING DASTURGA LOYIQLIGIMGA TA'SIR OTKAZSA NIMA BO'LADI?

Stipendiya dasturida qatnashishga jiddiy ta'sir etuvchi muammolarga ega o'quvchilar uchun rahmdillik arizasi jarayoni taklif etiladi. Arizalar Promise o'quvchilar portalı orqali topshiriladi. Arizalar IEP, 504 va o'quvchining nazoratida bo'magan boshqa holatlarda korib chiqiladi. Arizalar shuningdek, favqulodda holatlар тufayli maxsus joylashuvni talab etuvchi o'quvchilar uchun maktabdan keyingi ta'lim dargohiga kirgan paytda topshirilishi mumkin.

## MAKTABDAN KEYINGI TA'LIMNI BOSHLAB QOYGANDAN KEYIN QANDAY QILIB PROMISE DASTURIDA QATNASHISH HUQUQINI SAQLAB QOLAMAN?

O'quvchilarning umimiy o'rtacha ballari 2.0 bo'lishi hamda ular qatnagan maktab dasturiga asosan to'liq kursni o'qigan bolishlari va odatda 12-16 kreditga ega bolishlari lozim. To'liq kurs nima ekani haqida maktabingiz bilan maslahatlashing. Har bir o'quv yilining oxirida Promise dasturi tomonidan akademik ozlashtirish korib chiqiladi. To'liqsiz va onlaysiz ta'lim Promise tomonidan qoplanmaydi. *Izoh: Ko'pchilik 4-yillik kollejlarda o'quvchilar o'qishni 4 yilda tamomlash uchun bir semestr davomida 15 kredit toplashlari lozim.*

## QANDAY TOPSHIRISH MUMKIN?

Yuqori sinflarning bitiruv yilida Promise o'quvchilar portaliga kiring va FERPA relizini to'ldirib, maktabga oid qiziqishlariningizni kriting.

## MAKTABIM PROMISE STIPENDIYASINI QANDAY OLADI?

O'quvchilar Promise o'quvchilar portaliga kirdi. O'zları bormoqchi bo'lgan maktab nomini kiritadilar va Promise ma'lumotni o'sha yerdan oladi. Maktablar Pittsburgh Promise dasturiga mablag' o'tkazilishi uchun hisob-faktura yuboradilar. Cheklar bevosita maktabga yuboriladi.

## YANA SAVOLLAR BORMI? BIZ BILAN BOGLANING.

412-281-7605 (telefon)

412-281-7638 (faks)

[info@pittsburghpromise.org](mailto:info@pittsburghpromise.org) (e-pochta)

1901 Markaziy Avenyu, 204 uy, Pittsburgh, PA 15219 (pochta)

the pittsburgh promise

Pitsburg Promise haqida ko'proq bilib olish:

[www.pittsburghpromise.org](http://www.pittsburghpromise.org)